

18-noyabr - O'zbekiston Respublikasining "Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan kun

2021 8 Noyabr

Davlat ramzlari hamisha muqaddas va ulug' sanaladi. Chunki u xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida mujassam etgan Vatanning yorqin timsolidir. Bu yil mustaqil O'zbekiston Respublikasining "Davlat bayrog'i to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinganligiga 30 yil to'ladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrdagi navbatdan tashqari VII sessiyasida tasdiqlangan Davlat bayrog'i - mamlakat davlat suverenitetining ramzi hisoblanib, u yer yuzining shu sarhadlarida mustaqil O'zbekiston davlati borligini anglatadi va o'zida milliy-madaniy an'analarimizni mujassamlashtiradi.

Bayrog'imiz – faxrimiz, g'ururimiz!

Telegram: t.me/uzbekistanairways